

**FERMER XO‘JALIKLARIDA BOSHQARUV HISOBI UCHUN HISOB
SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI**

D.U. Mamadiyorov
ToshDAU i.f.n dotsenti

J.A.Jo‘rayev
ToshDAU, magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada fermer xo‘jaliklarida boshqaruv hisobi uchun hisob siyosatini shakllantirish asoslari bo‘yicha ilmiy ishning mazmun mohiyati haqida. .

Kalit so‘zlari: Fermer, boshqarish, qishloq xo‘jaligi, siyosat, pul, ilmiy ish.

Annotation. This article is about the essence of the scientific work on the basis of the formation of the accounting policy for management accounting in farms..

Key words: Farmer, management, agriculture, politics, money, science.

Аннотация. В данной статье речь идет о сущности научной работы на основе формирования учетной политики по управленческому учету в фермерских хозяйствах.

Ключевые слова: Фермер, менеджмент, сельское хозяйство, политика, деньги, наука.

Boshqaruv hisobi-bu faqatgina shu kunlarda bizning amaliyotda qo‘llanilayotgan ishlab chiqarish harajatlari hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishdangina iborat emas.

• Boshqaruv hisobi faqatgina hisobni (buxgalteriya va tezkor hisobni) emas, balki hisob ma‘lumotlarini qayta ishlash va ularning tahlilini ham o‘z ichiga oladi.

• Boshqaruv hisobi istiqbolni belgilashga, qaror qabul qilishga va boshqaruvga zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni o‘z vaqtida va to‘liq etkazib berilishi ustidan nazorat qilishga alohida e‘tiborni qaratadi;

• Boshqaruv hisobi hisob va analitik vazifalardan tashqari, harajatlar, mahsulot ichlab chiqarish, alohida turdagi mahsulotlar rentabelligi va qaror qabul qilish ustidan boshqarish funksiyasini ham bajaradi.

Boshqaruv hisobi ichki ehtiyojga mo‘ljallanib korxonalar rahbariyatini boshqaruv uchun lozim bo‘ladigan ma‘lumotlar bilan ta‘minlab berishi kerak ekan, uning ma‘lumotlari qanday bo‘lishi kerak, degan savolning tug‘ilishi tabiiydir.

Boshqaruv hisobi ma‘lumotlari:

1. Korxonaning ma‘lumot beradigan boshqaruv hodimi boshqaradigan qismiga tegishli bo‘lishi lozim. Chunki ishlab chiqarish rahbarini, misol uchun, sotish harajatlari haqidagi ma‘lumotlar qiziqitirmaydi.

2. Istiqbolni ham o‘z ichiga olishi kerak.

3. Quyidagi ikki talabni qondirishi lozim.

a) foydali bo‘lishi;

b) uni olishga ketgan harajatlar juda qimmatga tushmasligi lozim ya'ni ma'lumot ahamiyati bilan uni olish uchun ketgan harajatlar birinchisining foydasiga hal bo'lishi kerak.

Boshqaruv ma'lumotlari boshqaruvchilar tomonidan turli qarorlar qabul qilishda ishlatiladi. Bu qarorlarni quyidagi 4 guruhga ajratish mumkin:

a) Moliya bilan bog'liq qarorlar-korxonalar faoliyat ko'rsatishi uchun lozim bo'ladigan mablag'ning miqdorini aniqlash (qurilmalar sotib olish va joriy faoliyat uchun mablag'lari) haqida qaror qabul qilish;

b) Mablag'lardan foydalanish haqidagi qarorlar –korxonalar sarmoyasini qanday qilib samarali ishlatish kerakligini aniqlash;

v) Ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan qarorlar –qanday tovarlar ishlab chiqarish kerakligini va ularni qachon, qanday talablar hisobiga ishlab chiqarish kerakligini aniqlash;

g) Marketing bo'yicha qarorlar qabul qilish-mahsulotning bahosini va reklama harajatlarini, sotish bozorlarini va ularni zabt etish yo'llarini aniqlashdan iboratdir.

Demak boshqaruv hisobida buxgalteriya va tahlil qilish natijalari ma'lumotlaridan foydalanilgan ekan.

Ibragimov A, Ochilov I, Ko'ziev I, Rizaev N. "Moliyaviy va boshqaruv hisobi" Toshkent "Iqtisod-moliya" 2008. 444 b. Hozirgi sharoitda olingan axborotlar oliy sifatli va samarador, ham ichki, ham tashqi foydaluvchilar talabini qondiradigan bo'lishi lozim. Bu shuni anglatadiki, buxgalteriya axborot ko'rsatkichlarning eng kam miqdoridan iborat bo'lishi, ammo boshqaruv ierarxiyasining turli darajalaridagi uning foydalanuvchilaridan eng ko'p miqdorini qondirishi lozim. Taqdim etiladigan axborot zarur, muhim va maqsadga muvofiq bo'lishi, ortiqcha ko'rsatkichlarni istisno etishi kerak. Bundan tashqari, buxgalteriya axboroti eng kam miqdorda mehnat va vaqt sarf qilgan holda shakllantirilishi zarur.

Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga tayanib, "Boshqaruv hisobi"ga quyidagi ta'riflarni berish mumkin:

Birinchidan, boshqaruv hisobi-bu faqatgina shu kunlarda bizning amaliyotda qo'llanilayotgan ishlab chiqarish harajatlarining hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishdangina iborat emas.

Ikkinchidan, boshqaruv hisobi-faqatgina hisobni (buxgalteriya hisobi va tezkor hisobni) emas, balki hisob ma'lumotlarni qayta ishlash va ularning tahlilini ham o'z ichiga oladi.

Uchunchidan, boshqaruv hisobi-istiqbolni belgilashga, qaror qabul qilishga va boshqaruvga zarur bo'lgan ma'lumotlarning o'z vaqtida va to'liq etkazib berilishi ustidan nazorat qilishga alohida e'tiborni qaratadi.

To'rtinchidan, boshqaruv hisobi-hisob va tahlil vazifalaridan tashqari, harajatlar, mahsulotlar ishlab chiqarish, alohida turdagi mahsulotlarning rentabelligi va qaror qabul qilish ustidan boshqarish funksiyasini ham bajaradi.

Yuqorida qayd etilganlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, hisob axboroti buxgalteriya hisobotning o'zi uchungina shakllantirilishi kerak emas, balki uning ichki va tashqi foydalanuvchilariga foydali bo'lishi, taxminlash, rejalashtirish, me'yyorlashtirish, tahlil va nazorat jarayonlarini amalga oshirish, ya'ni samarali boshqaruv qarorlari qabul qilishning muhim vositasi bo'lishi uchun zaruriy asos bo'lib xizmat qilishi kerak. Yuqorida sanab o'tilgan barcha talablarni qondirish uchun axborotni to'plash, ishlov berish va aks ettirishning turli usullaridan foydalanish zarur.

Fermer xo'jaliklari qonun yo'li bilan mustaqil xo'jalik yurituvchi subekt va yuridik shaxs huquqiga ega bo'lib, xo'jalik yuritishning yangicha usullarini ishlab chiqarishga joriy qilishlari har tomonlama zaruriy holatga aylandi.

Shuning uchun ham fermer xo'jaliklari moliya-xo'jalik faoliyatini tashkil etuvchi quyidagi jarayonlar hisob obektlari bo'lib hisoblanadi:

- asosiy vositalar (sotib olish, ijaraga olish, lizingga olish va h.k.)
- moddiy qiymatliklar (em-hashak, dori-dormonlar, inventarlar va h.k.)
- ishlab chiqarish jarayoni;
- tayyor mahsulotlarni sotish va shunga doir hisob-kitoblar;
- bank, moliya, soliq organlari va boshqalar bilan hisob-kitob muomilalari.

Fermer xo'jaliklari uchun buxgalteriya hisobi tizimini soddalashtirilgan shaklda tashkil etish bo'yicha tavsiyalar mavjud.

Quyidagi muhim shart-sharoitlar bajarilgan holda amalga oshirish mumkin:

- Hisob registrlarining oddiy, tushunarli va bir xilda tuzish va to'ldirish.
- Hisob obyektlarini to'liq aks ettirish;
- Boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur ma'lumotlarini o'z vaqtida shakllantirish;
- Hisob registrlarini komplektlashda bir xillikga erishish;
- Fermer xo'jaligining ishlab chiqarish-moliya faoliyati to'g'risidagi hisobotini tuzish.

Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisoboti 20-sonli "Kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan hisoblarni soddalashtirib yuritish va hisobotlarni tuzish tartibi haqida" BHMS va 21-sonli- "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliya-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobining schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha Yo'riqnoma" da belgilangan yagona uslubiy asoslar va tadbirlarga muvofiq tashkil etiladi. Bunda buxgalteriya hisobi oldiga quyidagi vazifalar quyiladi:

-mulklarning saqlanishi va harakati hamda tasdiqlangan meyyor va rejalariga asoslangan holda moddiy, mehnat va moliya resurslaridan foydalanish ustidan nazoratni ta'minlash;


-korxonadagi xo'jalik jarayonlarni va faoliyati natijalari haqida boshqarish uchun ta'sisshikar, investorlar, haridorlar, kreditorlar, bank va soliq organlari foydalanishlari zarur bo'lgan to'la va aniq axborotlar tayyorlash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3574-son "Paxta xomashyosi va boshqoli don yetishtirishni moliyalashtirish tizimini tubdan takomillashtirish

chora-tadbirlari to'g'risida" 2018 yil 28 fevraldagi qaroridan kelib chiqib va fermer xo'jaliklarida hisob tizimini tubdan yaxshilash, ularga bank xizmatlari ko'rsatishni yanada takomillashtirish maqsadida qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat statistika qo'mitasi va O'zbekiston statistika qo'mitasi va O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashlari huzurida Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazlari tashkil etilgan.

Tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashlari huzuridagi Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazlarining namunaviy tashkiliy tuzilmasi:



*20 ta fermer xo'jaligiga bitta buxgalter biriktiriladi.

Markazlar tomonidan fermer xo'jaliklariga quyidagi asosiy xizmatlar ko'rsatiladi:

- fermer xo'jaliklari bo'yicha buxgalteriya hisobi yuritilishini ta'minlash;
- fermer xo'jaliklari ishchilariga ish haqi va undan majburiy ajratmalar hisoblanishini ta'minlash;
- mavsum yakuni bo'yicha fermer xo'jaliklarining asosiy vositalari, tovar-moddiy zaxiralari, pul mablag'lari, debitorlik va kreditorlik qarzlarni inventarizatsiyadan o'tkazishni ta'minlash;
- soliqlar bo'yicha hisob-kitoblar, soliq organlari bilan qarzdorlik bo'yicha solishtirma dalolatnomalarini tuzish hamda soliq va boshqa majburiy to'lovlarning o'z vaqtida to'lanishini tashkil etish;
- moliyaviy va statistika hisobotlarini tuzish va ularning tegishli organlarga taqdim etilishini tashkil etish;
- fermer xo'jaligining yil yakuniga ko'ra daromadlari va xarajatlarini tahlil qilish va keyingi yilga biznes reja tuzishda amaliy yordam berish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 martdagi PQ-4633-sonli "Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori.T.06.03.2020 y
2. Abdugarimov D., Nurmatov SH. - Kuzgi bug'doydan keyin tuproqqa asosiy ishlov berish texnologiyalarini loviyaning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'siri. //Navlarni yangilash, joylashtirish va parvarishlash texnologiyasi. Toshkent, 2001. 9-10 b.

3. Aleev B.G.-Primenenie gerbitsidov v xlopkoseyuyey zone Uzbekistana. Toshkent, Fan, 1971. 108 b.
4. Aliev A.M. Effektivnost kompleksnogo ispolzovaniya navoza i gerbitsida. J. Zemledelie – 2003, № 2, b. 20.
5. Aleev B.G. Napravlenie issledovaniy v oblasti gerbitsidov v xlopkovodstve. J. Xlopkovodstvo, 1960, № 3, 21-s.
6. Aleev B.G. Ispolzovanie gerbitsidov v borbe s sornyakami xlopkovyx poley. (broshyura), Tashkent, 1963, 25-s.
7. Aleev B.G. Gerbitsidy i ix primeneniye v xlopkovodstve (broshyura), Tashkent, 1965, 28-s 49

Internet saytlari

8. <https://givoyles.ru>
9. <http://lex.uz>
10. www.wikipedia.org
11. <http://scholar.google.com>
12. www.scopus.com